XALQ DEPUTATLARI OHANGARON TUMAN KENGASHINING QARORI

2022 - yil 15 - mart VI-59-39-10-134-K/22 Ohangaron tuman hokimligi

Ohangaron tumani hokimining 2021-yil 21-sentabrdagi 110-10-134-Q/21-son qarorini movofiqlashtirish to`g`risida

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 7-dekabrdagi “2021-2022 yillarda Toshkent viloyati Ohangaron tumanini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi PQ-4916-son qarorining 8-ilova 12-bandi, O`zbekiston Respublikasi “Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari to`g`risida”gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 48-son qarori, Xalq deputatlari tuman Kengashining 2021-yil 27-avgustdagi 6/43/4-son qarori va Geografik ob’ektlarga nom berish va qayta nomlash masalalari bo`yicha viloyat komissiyasining 2021 yil 17 sentabtdagi yig`ilish bayonidagi topshiriqlari va Nurafshon tumanlararo ma’muriy sudining 2022 yil 3-fevraldagi hal qiluv qarori ijrosini ta’minlash maqsadida hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to`g`risida”gi Qonunning 6, 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Nurafshon tumanlararo ma’muriy sudining 2022-yil 3-fevraldagi hal qiluv qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Ohangaron tumani hokimining 2021-yil 21-sentabrdagi “Ohangaron tumanida yangi tashkil etilayotgan “Ozodlik”, “Sartamg`ali”, “Ovjasoy” va “Qoraxtoy” MFYlarni ro`yxatdan o`tkazish to`g`risida”gi 10-10-134-Q/21-son qarorini O`zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to`g`risida”gi Qonuniga asosan qayta ko`rib chiqib, qonunga movofiqlashtirilsin.

3. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o`rinbosari

M.Xolto`rayev zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **А. Абдуллаев**